

RASSOMLAR ASARLARIDA AYOL OBRAZINING GAVDALANISHI

Qobiljonova Jasmina Jasur qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi 3-bosqich talabasi

qobiljonovajasminajasurqizi@gmail.com

+998 91 568 22 08

Anotatsiya: Ushbu maqolada buyuk rassomlar asarlarida ayol obrazlarining gavdalanishi hamda asarlarning badiiy talqini, asarlarni o'rganish va idrok etish masalalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Obraz, san'at, tasavvur, tarbiya, estetik, rassom, kolorit, idrok, tahlil, asar.

Abstract: This article examines the embodiment of female characters in the works of great artists and the issues of artistic interpretation of the works, study and perception of the works.

Keywords: Image, art, imagination, education, aesthetic, artist, color, perception, analysis, work.

Аннотация: В данной статье рассматривается воплощение женских образов в произведениях великих художников и вопросы художественной интерпретации произведений, изучения и восприятия произведений.

Ключевые слова: Образ, искусство, воображение, образование, эстетика, художник, цвет, восприятие, анализ, работа.

San'at — inson shaxsini shakllantiradigan, uning atrof-muhit to‘g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradigan eng muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan olganda san'at asarlarini idrok etish ko‘nikmasini rivojlantirish badiiy tarbiyaning muhim maqsadi hisoblanadi.

Tasviriy san'atlarini o'qish hamda idrok etish juda keng tushuncha hisoblanadi. Badiiy ijodni idrok etish etish moddiy narsalarni idrok etishdan farqlanadi. Moddiy narsalar o'zgarmas va kishida doimo bir xil ta'surot qoldiradi. Badiiy idrok esa o'zgaruvchan va har bir kishining ongiga o'zgacha ta'sir ko'rsaradi.

Estetik tuyg'u, ya'ni san'at asari mohiyatini anglash, rassom tomonidan muayyan obrazni tavsiflash uchun foydalanilgan ifodalash vositalarini farqlash, shuningdek, san'at asarini shaxsiy hayotiy tajribasi bilan qiyoslash qobiliyatini shakllantirishdir. San'atning faqat o'ziga xos tili mavjud va uni san'at asarlarini idrok etishdan boshlab o'rganish lozim. Rangtasvir, musiqa, adabiyot namunasini idrok etish — bu o'quvchidan pedagog rahbarligi ostida muayyan ko'lamda mehnat qilishni talab etadigan jarayondir.

Psixolog E.E.G'oziyevning yozishicha, "Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlар, xossalalar va inson ongingin yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi va aks ettirishda ishtirok etadi.

Buyuk rassomlar asarlarini o'rganish va tahlil qilish davomida shuni aytish mumkinki, har bir rassom ijod yo'li davomida ayol obraziga murojat qiladi. Tasviriy san'atning asosiy janrlarini ichida portret janri ham muhim ahamiyatga ega.

Portret- janrlar ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarining tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Tasviriy san'at asarlarini bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi. Portret janrida ayol, ona obrozi o'lmas, qadimiy va sevimli obrozdir. Chunki tasviriy san'atda ayol obrozi bu-mehr-muhabbat, vafo, sadoqat, iroda, matonat, sabrushijoat va hayot davomchisi sifatida tasvirlanadi. Qadimdan ayol obrozi Sharq va Yevropa mamlakatlarida ham go'zallik, nafosat,

muhabbat timsoli bo‘lib e’zozlangan. San’atning eng qiyin turlaridan bo‘lmish rassomlik san’atida ayollar tomsolini yaratgan buyuk musavvirlarimiz talaygina. Deyarli barcha rassomlarning ijodida ayol, ona obrozini ko‘rishimiz mumkin. Buyuk rassomlardan P.Benkov, M.Nabiyev, A.Abdullayev, Ch.Ahmarov, B.Jalolov, R.Ahmedov va boshqalarni asarlarida ayol obrazlari nafislik bilan tasvirlangan.

Buyuk rassomlar qatorida O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarovning asarlari e’tiborga molik sanaladi. Chingiz Axmarovning “Alpomish va Oybarchin”, “Shirin”, “Qizlar”, “Mukarrama Turg‘unboyeva portreti”, “Ganalik qiz”, “A’lochi Zotova portreti”, “Shoira Zulfiya portreti”, “Raqqosa”, “Xorazm raqsi”, “Surmaxon”, “Shoiralar”, “Peshonaband taqqan qiz” kabi asarlari o‘zbek tasviriy san’atining nodir durdonalaridan sanaladi.

Ayniqsa, Chingiz Axmarovning Halima Nosirova Shirin rolida chizgan portreti badiiy va go‘zal obraz hamda boy koloritga ega. Bu asarda rassom Shirin roolidagi Halima Nosirovani chizgan portretini tariflasak, boy o‘zbekona ranglar koloritini his qilish mumkin. Bu asarda ayol yuzida o‘zbekona hayoni rassom go‘zal holda tasvirlab bera olgan. Ayol obrazidagi uyalish, qo‘llarini mayin silkitish, moviy, siyohrang, yashil aralashgan rangdagi rumoli yelkazida tushib turibdi hamda bo‘yin qismida o‘zbekona taqinchoqlar, sochlari mayda o‘rilgan holda hamda boshida do‘ppi turgan holatda tasvirlangan. Ko‘ylagida sovuq ranglardan foydalilanilganligi Shirinning mudhish taqdirini ifodasi bo‘lishi mumkin.

Rassom Chingiz Axmarov asaridagi ayol obrazlarini har biri alohida kayfiyat ila gavdalantirilgan. Biri shodlik, quvonch va baxt ko‘rinishida bo‘lsa, biri g‘amgin obrazda o‘zini ifoda etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Alekseev S.S. Rang haqida. M. 2005 yil.
2. Vuzin V.S. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. M. 2006. 210
3. Beda G.V. Vizual savodxonlik asoslari. Chizma, rasm, kompozitsiya: Darslik. M. 1986 yil.
4. Vygotskiy, L.S. Pedagogik psixologiya. M. Pedagogika, 2007 yil
5. R. Niyozmetova. Uzluksiz adabiy ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2007. –b. 216.
6. B.N. Oripov. Tasviriy san’at o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent – “ILM ZIYO” - 2013 yil